

ADABIYOTSHUNOSLIKDA QO'LLANILADIGAN RANG RAMZLARINING MAZMUN MOHIYATI VA UNING FOLKLOR MUMTOZ ADABIYOTDAGI TALQINI

Surayyo Ahadova

Buxoro davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada adabiyotda rang bilan bog'liq ramziy obrazlar yaratishdan ko'zlangan maqsad, yozuvchi adiblarning rang bilan bog'liq so'zlarni ishlatishdagi mahorati haqida so'z yuritilgan. Tasvir vositasi sifatida foydalaniladigan ranglarning ma'lum bir ma'nolari hamda mazmunlari xususida to'xtalib o'tiladi. Kishi qalbida, ongida charx urib yurgan nozik hamda ziddiyatli kechinmalarni, o'ylarini ranglar yordamida bayon etishning o'ziga xos murakkab jihatlari, shu jumladan, folklor mumtoz adabiyotida rang ramzlaridan foydalanishning ahamiyati borasida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *rang, obraz, motiv, folklor, ramz, tasvir, uslub, ruhiy holat, ifoda.*

Barchamizga ma'lumki, bu yorug' olamda mavjud bo'lgan ranglarning jilosi har bir ijodkorning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Chunki adabiyot, xususan, adabiy, badiiy asar ramz, majoz hamda badiiy ko'chimlar bilan yanada jozibali bo'ladi. Qo'llaniladigan rang ramzlari asarga yangicha ma'no va mazmun bag'ishlaydi va yangi-yangi so'zlarni kashf etilishiga, tilning ifodaviy holatini kuchaytirilishiga xizmat qiladi. "Ramz (arab - ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) - voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmuni ifodalaydi"¹.

O'zbek she'riyatida ramzlarga murojaat qilinishi inson bilan tabiatning aloqadorligi, ayni paytda, ruhiyatimizning ona tabiatga uyg'unligi hosilasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. oq, qora, ko'k, yashil, qizil, malla kabi ranglar muayyan ma'noni bildirgan. Odatda, yashil yoshlik, qizil, bir tomondan to'kilgan qon, ikkinchi tomondan, qizlik g'ururi, oq hayot, qora, bir tomondan fojia, ikkinchi tomondan, buyuklik, ulug'lik, malla yetuklik, balog'at ma'nolarini aks ettirgan. Fikrning ixcham, lo'nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poetik tadqiq etish - insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishilgan yutuqlar she'riyatda yangi poetik sarhadlar kashf etayotganligidan dalolat beradi. "Milliy badiiy tafakkurning yangilanishi tufayli o'zbek adabiyotida badiiy asar tili, adabiy matnning qurilishi, ritm, vazn, qofiya, she'riy san'atlarni qo'llash tamomila boshqa ma'no kasb etadi. Bu davrda ruh falsafasini anglatishga bo'lgan intilish, ziddiyat qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat, ranglar uyg'unligi va tasvirining quyuq bo'lishiga e'tibor kuchaydi. Shoirlar tamonidan olam hodisalariga, hayot manzaralariga turli jihatdan yondashish - "bir predmetga bir talay nigoh tashlash" o'zlashtirildi"².

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent: 2000-yil.

² Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. - T.: Yangi yo'l poligraf service, 2010-yil, 186-bet

O'zbek she'riyatiga nazar tashlasak, har bir ijodkor poeziya maydoniga yangi ramzlar, ko'hlik majozlar va betakror ko'chimlar bilan kirib kelganini ko'ramiz. Ranglar hamisha ijodkorlar uchun fikr quroli, asosiy o'xshatish vositasi sifatida xizmat qilgan. Rang bilan bog'liq ramziy obrazlar yaratish, ularda hayotimizning barcha talotumlarini, zamondoshlar qalbida, ongida charx urib yurgan nozik hamda ziddiyatli kechinmalarni, o'ylarini aniq, obrazlar sifatida shakllantirib, she'rxonga taqdim etish, deyarli barcha shoirlarimizga xos xususiyatdir. Ranglarni ramzlashtirish o'zbek adabiyotida o'ziga xos an'ana tarzida davom etmoqda, badiiy-estetik tamoyil sifatida yashamoqda. Xalq og'zaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng ko'lamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

“Etnograf V.Trener oq, qizil, qora rang uchligining marosimlarda ifodalovchi ma'no qatlamlari orasida oqning er kishi, qizilning ayol, qoraning motam bilan bog'liq talqinlari muhin o'rin tutishini yozgan. O'zbek xalk folklori va marosimlarida ham oq, qizil, qora ranglar umuminsoniy ramziy ma'nolarga ega. Xalq qo'shiqlarida oq rang birikma shakliga ega turg'un o'zak ramzlar sirasiga kiradi. Jumladan, oq olma, oq terak, oq urik, oq uzum, oq otoch, oq gul, oq saroy, oq kal'a, oq ayvon, oq qumg'on, oq ot, oq ilon, oq ro'mol, oq kamzul, oq ko'ylak, oq baldoq va boshqalar”³.

Shu o'rinda, o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyondasi, o'zbek tilining asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy she'riyatida ham tabiatda mavjud bo'lgan ranglarning ifodalashning turli usullaridan foydalanilganini ham ta'kidlash joizdir. Navoiy poeziyasida ranglarning ramziy qo'llanilish usuli shoir lirikasida bir tizim holiga kirgan bo'lib, o'zining ma'lum qonuniyatiga ega hisoblanadi. Aynan mana shu usul orqali Navoiy qahramonning xilma-xil kechinmalarini tasvirlashda boshqa poetik vositalar bilan birga unumli foydalanganiga amin bo'lish mumkin. “Shoir muayyan holat, kayfiyatini tasvirlashda va ana shu holatni bo'rttirib ko'rsatishga yordam beradigan biror rangga murojaat qiladi. Masalan, lirik qahramonning hijron kunlaridagi ruhiy va jismoniy holatini sariq (oshiqning hazin holati), qora (baxti qoralik), oq (qora rangga kontrast qo'yib, baxti qoralikni bo'rttirish) ranglar vositasida yorqin tasvir etadi”⁴.

Xususan, “Sab'ai sayyor” dostoning har bir bob uchun yozilgan maxsus sarlavhalarida ranglardan unumli foydalanilgani yaqqol aks etib turadi. Shuningdek, qasrlardagi shoh, malikalar, qasrga kelib ularga hikoyat aytib beruvchi musofirlar, qasrda joylashgan har bir jihozning tasvirlanishida ham ranglarning turfa xil tovlanishlari kuzatiladi. Qadim zamonlardan buyon yetti xil rang asl, asosiy ranglar deb baholangan. O'zbek mumtoz adabiyotida sariq rang tasvirini juda ko'p o'rinlarda uchratishimiz mumkin. Xalq orasida esa bemor bo'lish, kutish, intizorlik, eskirish ma'nolariga nisbatan ham sariq rang qo'llaniladi. Ba'zan esa bu rang tushkunlik, unutish kabi ma'nolarni ifodalab keladi.

Yashil rang ilohiy ranglardan biri bo'lib, qadimda dunyo tomonlari, jumladan, sharq tomon shu rang bilan ifodalangan. Ushbu rang hayot, yangilanish, jonlanish, umriboqiylik, ona tabiat kabi ramziy belgilarga ega. Mumtoz adabiyotda esa yashil rang ko'proq qo'llaniladi. Alisher Navoiy ham o'z ijodida ushbu rangdan ko'p foydalangan va u bilan bog'liq g'azallar ham yaratgan. “Bir qator xalq qo'shiqlarda oq va qizil bir xil obrazga qo'shib yonma-yon, ba'zan zidlashgan holatda qo'llanadi. V.Terner Afrika qabilalaridagi marosimlarida oq va qizil

³ Shomirza Turdimov. Xalq qo'shiqlarida ramz. Toshkent: Fan, 2020. – 85 b.

⁴ Yo. Ishoqov. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 119-131.

ranglarning birga kelishi hayotni anglatishini, bu o'rinda oq - yigit (er kishi)ni, qizil - ayol (qiz)ni ifodalashini yozgan"⁵. Ma'lumki, qora rang bilan bog'liq ramziy obrazlar qadimdan istifoda etiladi. Biroq aksariyat hollarda bu rang dahshat, yovuzlik, yer osti dunyosi, ya'ni o'liklar olamining ramzini anglatgan. Mumtoz va hozirgi poeziyada qora rangi ma'shuqaning qoshi, ko'zi, sochiga nisbatan qo'llanilganda ijobiy ma'no ifodalasa, qismat, baxt, ro'zg'or, tun so'zlariga nisbatan ishlatilganda, an'anaviy yovuzlik, dahshat kabi ramziylikni anglatadi. "O'zbek xalk folklori va marosimlarida ham oq, qizil, qora ranglar unuminsoniy ramziy ma'nolarga ega. Xalq qo'shiqlarida oq rang birikma shakliga ega turg'un o'zak ramzlar sirasiga kiradi. Jumladan, oq olma, oq terak, oq urik, oq uzum, oq otoch, oq gul, oq saroy, oq qal'a, oq ayvon, oq qumg'on, oq ot, oq ilon, oq ro'mol, oq kamzul, oq ko'ylak, oq baldoq va boshqalar"⁶.

Qayd etish joizki, "Sab'ai sayyor" dostonida ilohiy ranglardan biri hisoblanadigan moviy rang har bir hikoyatda tabiat, muhit hamda personajlar tasviri uchun asos qilib olingan. Alisher Navoiy bu rangdan ham juda mohirona tarzda foydalangan. Uning ijodida rang bilan bog'liq timsollar faqat muayyan rang va shoirning unga bo'lgan munosabatini ifodalabgina qolmaydi, balki shoir ranglar vositasida yangi timsollar yaratadi. Alisher Navoiy she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy-majoziy timsollarning turli xil ko'rinishlari mavjud. Bu tamoyil barqaror an'ana sifatida she'riyat xazinasidan mustahkam o'rin egallagan holda hozirgi zamon shoirlari ijodida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, istiqlol davri adabiyotida, o'tmish hodisalari badiiy taftishdan o'tayotgan davrda tariximizning istilochilar zulmi davrini ramzlashtirishda an'anaviy qora rang emas, balki qizil rang ijodkorlarning g'oyasi badiiy niyatiga, ifoda talabiga kelishida yorqin aks etgan. Odatda adabiyotda qizil rang muhabbat, go'zallik ramzi sifatida qo'llaniladi. She'riyatda muhabbat ramzi bo'lgan qizil rang ba'zan ayriliq, hijronni ifodalashi bilan ham ahamiyatlidir. Motam rangi bo'lgan qora rang esa go'zallik, nafislik belgisi sifatida qo'llanilishi mumkinligini ham aytish lozimdir. Ranglar ba'zan umuman inson va uning hayoti ramzi bo'lib kelishi ham mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rang inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u insonda quvonch va ma'yuslik, tetiklik yoki g'amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg'ularini uyg'otadi. She'riyatida inson ruhiy iqlimlarida yuz berayotgan turfa holatlarni, o'zgarish evrilishlarni nisbatan to'liq va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladigan rang bilan bog'liq ramziy obrazlarni yangicha talqinda qo'llash shoirlarning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Ijod onlarida asarlariga musavvir nigohini, shoirlik ilhomi-yu tuyg'ularini, musiqachi ohanglarini singdirib yuboradigan shoirlar ham talaygina. Ranglardagi mavjud ma'nolardan tashqari, har bir ijodkor rangga ma'lum bir poetik vazifa yuklashni ham o'z oldiga maqsad sifatida belgilab olishi darkor.

⁵ Shomirza Turdimov. Xalq qo'shiqlarida ramz. Toshkent: Fan, 2020. – 85 b

⁶ Shomirza Turdimov. Xalq qo'shiqlarida ramz. Toshkent: Fan, 2020. – 85 b